ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2024/ № 12

Termiz – 2024

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.12.2024
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz
Rasmiy sayt:
www.philologicalresearch.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, *filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)*
Shoxista Maxmaraimova, *filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)*
O‘ral Xoliyorov, *f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)*
Olmos Ulviy Binnatova, *f.f.d., professor (Ozarbayjon)*
Karl Rayxl, *f.f.d., professor (Germaniya)*
Vali Savash yelok, *f.f.d., professor (Turkiya)*
Dorota Silviya, *f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)*
Muslihiddin Muhiddinov, *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Ibodulla Mirzayev, *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Abdi Mamatov *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Suyun Karimov *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Muhammadxon Hakimov, *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Nafas Shodmonov *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Dilmurod Quronov, *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Murodqosim Abdiyev, *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Baxtiyor Mengliyev, *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Normat Yo‘ldoshev, *f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)*
Abdulla Xudoyqulov, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Bobonazar Murtazayev, *f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)*
Asqar Eshmo‘minov, *f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)*
Obidjon Shofiyev, *f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)*
Zafar Umurqulov, *f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)*
Nurali Amonturdiyev, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Hakim Ahmedov, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Ahad Shukurov, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Eshnazar Jabborov, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Abdumurod Arslonov, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Sirojiddin Turdimurodov, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Umida Raximova, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Gulchehra Begmatova, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Nargis Qurbonazarova, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Muyassar Xolova, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Shoira Omonturdiyeva, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Sherzod Turdiqulov, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Zaynura Qodirova, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Humayun Nadim Muhammad, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Dilrabo Ergasheva, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.12.2024
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100
Цена договорная
Заказ: 155
Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул.
Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
www.philologicalresearch.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, *доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)*
Шохиста Махмараимова, *доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)*
Урал Холияров, *ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)*
Олмос Улвий Биннатова, *д.ф.н., профессор (Азербайджан)*
Карл Райхл, *д.ф.н., профессор (Германия)*
Вали Саваш Елок, *д.ф.н., профессор (Турция)*
Дорота Сильвия, *PhD, доцент (Польша)*
Муслихиддин Мухиддинов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Ибодулла Мирзаев, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Абди Маматов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Суюн Каримов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Мухаммадхон Хакимов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Нафас Шодмонов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Дилмурод Куронов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Мурадкасим Абдиев, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Бахтиёр Менглиев, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Нормат Юлдашев, *д.ф.н., доцент (Узбекистан)*
Абдулла Худайкулов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Бобоназар Муртазаев, *ф.ф.н., доцент (Узбекистан)*
Аскар Эшмуминов, *д.ф.н., доцент (Узбекистан)*
Обиджон Шофиев, *д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)*
Зафар Умуркулов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Нурали Амонтурдиев, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Хаким Ахмедов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Ахад Шукуров, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Эшназар Джаббаров, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Абдумурод Арслонов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Сирожиддин Турдимуродов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Умида Рахимова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Гульчехра Бегматова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Наргис Курбаназарова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Муяссар Холова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Шаира Амонтурдиева, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Шерзад Турдикулов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Зайнура Кадирова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Хумаюн Надим Мухаммад, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Дильрабо Эргашева, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President`s Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.12.2024
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94
Offset printing. Offset paper
Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155

Printed at the
«Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
www.philologicalresearch.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, *doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)*
Shohista Makhmaraimova, *doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)*
Ural Kholiyorov, *PhD, associate professor (Uzbekistan)*
Olmos Ulviy Binnatova, *doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)*
Karl Rayxl, *doct.of philol. sciences, professor (Germany)*
Vali Salvash Elok, *doct. of philol. sciences, professor (Turkey)*
Dorota Silvia, *PhD, associate professor (Poland)*
Muslihiddin Mukhiddinov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Ibodulla Mirzaev, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Abdi Mmatov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Suyun Karimov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Muhammadkhon Khakimov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Nafas Shodmonov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Dilmurod Kuronov, *doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Muradkasim Abdiyev, *doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Bakhtiyor Mengliev, *doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Normat Yuldashev, *doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)*
Abdulla Khudaykulov, *PhD (Uzbekistan)*
Bobonazar Murtazaev, *cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)*
Askar Eshmuminov, *doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)*
Obidjon Shofiev, *PhD, associate professor (Uzbekistan)*
Zafar Umurkulov, *PhD (Uzbekistan)*
Nurali Amonturdiev, *PhD (Uzbekistan)*
Hakim Akhmedov, *PhD (Uzbekistan)*
Ahad Shukurov, *PhD (Uzbekistan)*
Eshnazar Jabbarov, *PhD (Uzbekistan)*
Abdumurod Arslonov, *PhD (Uzbekistan)*
Sirojiddin Turdimurodov, *PhD (Uzbekistan)*
Umida Rakhimova, *PhD (Uzbekistan)*
Gulchekhra Begmatova, *PhD (Uzbekistan)*
Nargis Kurbanazarova, *PhD (Uzbekistan)*
Muyassar Kholova, *PhD (Uzbekistan)*
Shoira Omonturdiyeva, *PhD (Uzbekistan)*
Sherzod Turdikulov, *PhD (Uzbekistan)*
Zaynura Kadirova, *PhD (Uzbekistan)*
Humayun Nadim Muhammad, *PhD (Uzbekistan)*
Dilrabo Ergashova, *PhD (Uzbekistan)*

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

JO‘RAYEVA BIBISH MUXSINOVNA,
TO‘XTAYEVA DILAFRUZ ASHUROVNA
Ekspressivlik va intensivlik munosabati.....7

ЁҚУБОВ ШАРИФ
Дарбанд, Темир дарвоза, Оққўтал ва
“Темирдан ясалган дарвоза” атамалари таҳлили 11

SHUKUROV AHAD AHMADOVICH
Tarixiylikni ifodalovchi eskirgan so‘zlar 15

AMONTURDIYEV NURALI RASHIDOVICH
O‘zbek tili izohli lug‘atlarida etnografizmlar aksi 18

RAXIMOVA UMIDA DJUMAYEVNA
Hamid Olimjon ijodida so‘z sehri 23

TURDIQULOV SHERZOD DUMINOVCH
Onomastik ko‘lamda teotoponimlar tadqiqi.....26

ABDURAXMANOV SHAVKATJON ASHUROVICH
Funksional sintaksis haqida mulohazalar.....29

VAFOYEVA MUXAYYO YULDOSHEVNA
Sinonimlarda miqdor o‘zgarishlarining ayrim ko‘rinishlari xususida.....32

TUYCHIYEVA OYDIN SAYFULLAYEVNA
Fors tilida shart-istak mayli qo‘llanilishining o‘ziga xos xususiyatlari.....36

SHAYMARDANOVA AZIZA RAIMJANOVNA
Intralingval lakunalarning lisoniy tabiati 40

DUSNAZAROVA MAVJUDA ILYAMONOVNA
Nikoh marosimlarida milliy o‘zlikning aks etishi.....46

KADIROVA SAIDA MAXSUDOVNA
Badiiy tasvir va ifoda vositalarining adabiyotdagi roli 49

МУНДАРИЖА

TO‘YCHIYEVA ZULAYHO HAMROQO‘LOVNA
Islomiy paremalogik religionimlar 53

ABDUVALIYEVA KAMOLA SHAVKAT QIZI
“Shajarayi turk” asaridagi etnonimlarning hozirgi
O‘zbekiston hududida etnotoponim sifatida uchrashi 56

RAHMATULLOYEV AHTAM A’ZAM O‘G‘LI
Fors tilida otning semantik tasnifi 60

HAMDAMOVA NASIBA TO‘RABEKOVNA
Diniy leksikaning semantik xususiyatlari
(ekzotik leksika, frazeologizmlar, paremiologik birliklar misolida).....64

YO‘LDOSHEVA NARGIZA
“Alpomish” dostonida mavjud fonetik dialektizmlar.....68

ВАПАЕВА АНАХОН НАСУРИЛЛАЕВНА
Молодёжный сленг в вузах: дешифровка
(на примере студентов Университета Маъмуна) 71

ИСМАИЛОВА ФЕРУЗА ИСМАИЛОВНА
Народные пословицы в произведениях русских писателей.....75

OBLOQULOVA ZILOLA ULUG‘BEKOVNA
O‘zbek tilida taqinchoq nomlari semantikasi.....79

ADABIYOTSHUNOSLIK

КАДИРОВА ОЛИЯ ХАМЕДОВНА
Жанровое многообразие циклических произведений.....83

TA’LIM

XOJIYEVA IRODA ZOKIRJON QIZI
Ta’lim tojik tilida olib boriladigan umumta’lim maktablarda o‘zbek tili
(davlat tili) fanini o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari 90

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2024; 12
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

"SHAJARAYI TURK" ASARIDAGI ETNONIMLARNING HOZIRGI O'ZBEKISTON HUDUDIDA ETNOTOPONIM SIFATIDA UCHRASHI

Abduvaliyeva Kamola Shavkat qizi,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

Abulg'ozi Bahordirxonning "Shajarayi turk" asari O'rta Osiyo va turkiy xalqlarning tarixini yorituvchi muhim tarixiy manba hisoblanadi. "Shajarayi turk" asari O'rta Osiyo xalqlari tarixini, xususan, turkiy qabila va urug'larning kelib chiqishini, ular o'rtasidagi munosabatlarni yoritishga qaratilgan. Bu asar Xitoy, Eron, Hindiston va boshqa mintaqalarga yoyilgan turkiy qabilalar tarixiga oid qimmatli ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Ushbu asar orqali ko'plab turkiy xalqlar, qabila va urug'larning nomlari va ularga bog'liq geografik joy nomlari (etnotoponimlar) haqida ma'lumot olish mumkin. Mazkur maqolada ushbu asardagi etnonimlar va ular asosida shakllangan etnotoponimlar tilshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi.

Etnonim – muayyan xalq, etnik guruh yoki qabila nomini ifodalaydi. Masalan, *turk, mo'g'ul, qipchoq* va boshqalar.

Etnotoponim – muayyan etnonimdan hosil bo'lgan joy nomlari bo'lib, ular asosan etnik guruh yashagan yoki ularning madaniy ta'siri ko'rinadigan hududlarni anglatadi. Masalan, *qo'ng'irot, qang'li, mo'g'ul, do'rmon, qirg'iz, qipchoq, saroy* va boshqalar.

Etnonim va etnotoponimlar o'rtasidagi munosabat insoniyatning tarixiy va madaniy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Etnonimlar etnik guruhlar va ularning madaniy o'ziga xosliklarini ifodalagan bo'lsa, etnotoponimlar ushbu guruhlarning geografik hududlarda qoldirgan izlarini aks ettiradi. O'zbekiston hududida ko'plab etnotoponimlar uchrab, ular xalqning tarixi, migratsiya jarayonlari va madaniy ta'sirini aniqlash uchun qimmatli manba hisoblanadi.

V.A. Nikonov yozishicha, etnotoponimlar etnik guruh yaxlit yashaydigan hududda emas, balki uning chekka qismida, ya'ni boshqa bir etnik birlik bilan chegaradosh hududlarda paydo bo'lgan. Masalan, qo'ng'irot yoki qang'lilar yaxlit yashagan hududlarda qo'ng'irot, qang'li kabi toponimlar uchramaydi. Shu narsa muhimki, boshqa etnik birliklar miqdoriy ko'pchilikni tashkil qilgan hududlarda emas, ozchilikni tashkil qilgan hududlarda etnik belgi nomlanish uchun mezon, asos, belgi vazifasini o'tagan[1].

Etnonim va toponim orasidagi uzviylik haqida olima G.S. Gubayeva o'z ilmiy ishlarida yozishicha, o'tmishda aholisi ko'chmanchi yoki yarim o'troq hayot kechirgan hududlardagi joy nomlarida etnonimlar soni ko'p, aksincha aholisi qadimdan o'troq bo'lgan hududlardagi joy nomlarida etnotoponimlar kam. Bu qonuniyatni, ko'chmanchi yoki yarim o'troq tarzda hayot kechirgan aholini hududiy tarqalishida etnik mansublik muhim rol o'ynaganligi bilan izohlash mumkin[2].

S. Qorayevning toponimiyaga oid ma'lumotlariga ko'ra respublikamiz toponimiyasi tarkibida *ayronchi, arg'in, achamayli, bag'anali, beshbola, burqut, galabotir, kenagas, tama, ming, mitan, oytamg'ali, uyas, qutchi* kabi etnonimlar shahar va qishloqlar nomlari tarkibida **5 dan 10 martagacha**; *bolg'ali, bolta, bahrin, qang'li, qiyot, qirq, mirishkor, mo'g'ul* kabi etnonimlar **11-20 martagacha**; *beshkapa, do'rmon, jaloyir, tojik, turkman, qirg'iz, qozoq, qo'ng'irot, mang'it* kabi etnonimlar 21 martadan 30 martagacha, *qipchoq, saroy* etnonimlari 31-40 martagacha takrorlanadi. Arab etnonimi esa 80 dan ortiq oykonim hosil qilgan[3].

Ba'zi urug' va qabilalar nomlari bugungi kunda unutilayotgan bo'lsa-da, ularning ko'plari hozirgi viloyatlarimiz tarkibida joy nomlari sifatida yashab kelmoqda. "Shajarayi turk" asarida etnonim sifatida o'rganilayotgan urug' va qabilalar nomi bugungi kunda toponimlar yoki etnooykonimlar sifatida uchrab, o'zining tarixi va madaniyatini saqlab qolgan. Shunday etnonimlar misolida *barlos, do'rmon, jaloyir, mang'it, nayman, qang'li, qiyot, qipchoq* kabi urug'lar mavjud. Ular har bir viloyatda kichik joy nomlari sifatida uchraydi. Ba'zan bu urug' nomlari aholisiga nisbatan qo'llanilmasa ham, joy nomi sifatida mavjud bo'lib qoladi. Ushbu etnooykonimlarga -lik qo'shimchasini qo'shish orqali ularning aholisi ifodalanadi.

Adaqli – "Adaq" (odoq, adak, adoq shaklida uchraydi) so'zi qadimgi turkiy tillarda "oyoq" yoki "oxirgi qism" ma'nosini beradi. "Adaqli" esa "oxiri bo'lgan"

[1] Никонов В.А. Введение в топонимику. – М.: Наука, 1965. – 178 с.

[2] Губаева С.С. Этническая история населения Ферганы конца XIX – начала XX вв. (По данным топонимии). – Ташкент, 1983.

[3] Qorayev S. Toponomika. – Тошкент, 2006. – 85 b.

yoki “chegaralangan” degan ma’noni anglatadi. Amudaryo qirg‘og‘ida *odoq* joy nomi sifatida mavjud.

Arab – ushbu etnonim Arabiston yarim orolidagi xalqlarning umumiy nomidir. Arab so‘zi semit tillaridan kelib chiqqan bo‘lib, “cho‘l aholisi” ma’nosini anglatadi.

Boyovut – Sirdaryo viloyati tarkibidagi tuman va shahar nomi. Boyovut tumani viloyatning sharqiy qismida, Mirzacho‘l dashtining janubida joylashgan. Relyefi, asosan, tekisliklardan iborat bo‘lib, uning yuzasi allyuvial yotqiziqlar bilan qoplangan. Tuman nomiga aylangan. Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk”, Rashididdinning “Jome ut-tavorix”, Abulg‘ozi Bahodirxonning “Shajarayi turk” asarlarida boyovut so‘zi boy ma’nosini berishi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Barlos – Samarqand viloyatining Ishtixon, Bulung‘ur tumanlaridagi qishloqlar nomi. Qabila nomi bilan bog‘liq nom. Hozirgi vaqtda barloslarning avlodlari Chiroqchi, Koson, Shahrisabz, Boysun, Denov, Sariosiyo, Forish, Jizzax, Marhamat, Xo‘jaobod, Nurota, Urgut, G‘allaorol tumanlarida yashaydi[1].

Abulg‘ozi Bahodirxonning “Shajarayi turk” asarlarida quyidagicha izohlangan: “...Aning o‘g‘lining oti Erdamchi barlas. Barcha barlas eli muning nasli tururlar. Oqsoq Temur ushbu uruqdin erdi. Barlasning ma’nosi sipahsolor temak bo‘lur”.

Nayman: “Nayman elining zikri. Bu qadim el turur. Boshlari va mollari ko‘p bo‘lur erdi”[2]. Bu etnonim mo‘g‘ul tilida “sakkiz” ma’nosini bildiradi. Naymanlar qadimgi sakkiz urug‘ birlashmasini tashkil etgan. Mo‘g‘ullar 8 o‘g‘iz qabilasini qisqartirib nayman deb atagan. Hozirda Andijon viloyati Andijon tumanida, Buxoro viloyati Vobkent tumanida shu nomdagi qishloqlar mavjud. Bundan tashqari, *Naymanbo‘ston* (Farg‘ona viloyatining Toshloq tumanidagi qishloq), *Naymantepa* Samarqand viloyatining Jomboy tumanidagi qishloq), *Naymancha* (Samarqand viloyati Oqdaryo tumanidagi qishloq) kabi joy nomlari qayd qilingan.

Bahrin (baarin) – turklashgan mo‘g‘ul qabilalaridan. Mo‘g‘ullar hukmronligi davrida Dashtiqipchoqqa o‘rnashgan. XVII–XIX asrlarda katta bir qismi Toshkent vohasiga, Farg‘ona vodiysiga, bir qismi Zarafshon vohasiga, Qashqadaryoning o‘rta oqimiga o‘mashgan. Asaka, Ishtixon, Qamashi, Uchko‘prik tumanlarida Bahrin, Qorako‘1tumanida Bahrinbayot qishloqlari bor. Bahrin – ov qushi, lochinning bir turi. Bu parranda urug‘ning totemi, ya’ni muqaddas jonivori bo‘lgan bo‘lishi mumkin.

Duglat, duvlat, dulat – etnonim. Dastlab mo‘g‘ul qabilasining nomi bo‘lgan. Duglatlar Duklan degan kishidan tarqalgan ekan. Duklan (dugulan) mo‘g‘ul tilida “cho‘loq” degani, duglat esa bu so‘zning ko‘pligi[3]. Ushbu etnonim hozirda Jizzax viloyati Baxmal tumanida etnotoponim sifatida mavjud. Duvlat (qirg‘iz tilida – duulat) – qirg‘izning Manak urug‘i kichik qabilasining nomi (bu qabilaning avlodlari u yerda yashaydi). Dulat – qozoqlar orasida katta urug‘ va qabila birlashmasi. Dulat, Duvlat, Dug‘lat qabilasi boshqirdlar, o‘zbeklar va boshqa turkiy xalqlarning qabilaviy bo‘linmalarida ham uchraydi.

Do‘rman – “Do‘r” so‘zi qadimgi turkiy tilida “to‘rt” degan ma’noni beradi. Bu nom urug‘larning to‘rt qismli bo‘linishini yoki to‘rt urug‘ning birlashmasini anglatishi mumkin. Hozirda Xorazm viloyati Xonqa tumani, Farg‘ona viloyatining Qo‘shtepa, Bog‘dod tumanlarida qishloqlar nomi bo‘lib, u XVI–XVII asrlarda Dashti Qipchoqdan kelgan o‘zbek qabilalaridan biri ekanligi haqida ma’lumotlar bor. Do‘rmon**,** Do‘rmoncha (Farg‘ona viloyatining Bog‘dod tumani) tarzida uchraydi.

Jaloyir (Jalair) – o‘zbek, qozoq, qirg‘iz va qoraqalpoqlar tarkibiga kirgan turk-mo‘g‘ul qabilasi. O‘zbek jaloyirlar Toshkent, Buxoro vohalarida, Nurota tog‘lari etaklarida, Jizzax, Kattaqo‘rg‘on, Navoiy, Qorako‘1 tumanlarida, Xorazmda yashagan va ikkita katta – qaychili va bolg‘ali hamda boshqa mayda urug‘larga (Qarg‘ali, Boshqird, Qorabdal, Qorako‘li, Qorachopon, Chuvuldoq, Jastabon) bo‘lingan. Zomin, Kattaqo‘rg‘on, Narpay, Xatirchi, Jarqo‘rg‘on, Sho‘rchi, Zangiota, Qibray, Quva tumanlarida Jaloyir, Rishton tumanida Jaloyirchek qishloqlari bor. N.A. Aristov jaloyirlar qabilasidagi urug‘larning turk-mo‘g‘ullar qorishmasidan iborat ekanligini hisobga olib, ularning mo‘g‘ul ekanliklari haqidagi fikrga shubha bilan qaraydi. S.A. Amonjolov ham jaloyirlarning asosini turklar tashkil qilganligini aytadi.

Jo‘yrat – turk va mo‘g‘ul qabilalari tarkibidagi urug‘lardan biri bo‘lib, kelib chiqishi bo‘lgan bu nomda “jo‘y” (kanal, suv oqimi) va “rat” (joy) so‘zlari bo‘lishi mumkin. Bu urug‘ suv bo‘yida yashagan bo‘lishi ehtimoli bor. Jarat, juyrot, juyrat, jurchat kabi shakllarda uchraydi. Samarqand, Qashqadaryo viloyatlarida Juyrat nomli qishloqlar va Urgut shahri shu nomdagi mahalla bor.

O‘yrat (uyrat) – O‘yrat so‘zi o‘g‘uz urug‘lariga tegishli bo‘lib, “o‘ru” (to‘qimoq, bog‘lamoq) ma’nosini anglatadi. O‘yratlar ko‘chmanchi xalqlar sifatida tanilgan. Bundan tashqari ular Farg‘ona qipchoqlari tarkibida ham uchraydi. Hozirda Yangibozor, Navoiy, Koson, Kogon, Rishton tumanlarida Uyrat qishloqlari bor.

Qiyot – bu nomning kelib chiqishi qadimgi turkiy urug‘lar bilan bog‘liq. Abulg‘ozi Bahodirxon “Shaja-

[1] O’zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. Tuzuvchilar R.Y.Xudoyberganov [va boshq.]. – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2022. – 72 b.

[2] Абулғозий. Шажараи турк. – Тошкент: Чўлпон, 1992. – Б. 36.

[3] Qorayev S. Toponomika. – Toshkent, 2006. – 85 b.

rayi turk”da qiyotning ma’nosini mo‘g‘ulcha, “tog‘-dan oqqan sel” ma’nosidagi qiyon so‘zining ko‘pligi deya ifodalaydi. Ya’ni: “Qayonning avlodi ko‘p bo‘ldi. Nukuzniki andin az bo‘ldi. Qayon avlodina Qiyot tedilar… Qiyot qayonning jam’i turur”[1]. Hozirda Samarqand viloyati Kattaqo‘rg‘on tumanida shu nomdagi qishloq mavjud. Shuningdek, Buxoro, Navoiy viloyati toponimiyasida ham uchraydi.

Qipchoq – Buxoro viloyati Vobkent tumanidagi qishloq. Toponimni hosil qilgan qipchoq so‘zi urug‘ nomi, etnonim. Xorazm viloyatining Bog‘ot tumanida ham shunday nomli etnotoponim mavjud bo‘lib, ularning deyarli bir xil izohlanishini ta’kidlash lozim. Qipchoq chorrabot – Buxoro viloyati Vobkent tumanidagi qishloqning nomi. Qipchoqovul – Qoraqalpog‘iston Respublikasi. Qoraqalpog‘istonda 15 ga yaqin aholi punkti va ovullar shu nom bilan ataladi.

N.A. Baskakov “Shajarayi turk” asari bilan bir qatorda “Razvat us-safo”, “Tarixi mulki ajam” va boshqa asarlarni o‘rganish asnosida qipchoq etnonimi haqida o‘z fikrini bildiradi. U “qipchoq” so‘zining qipchoq va qipichoq shakllarini keltirib, u daraxtning qobig‘i va kavagi ma’nosini bildirishini ko‘rsatdi[2].

Samarqand viloyatining Bulung‘ur, Kattaqo‘rg‘on tumanlarida qipchoqlar o‘troqlashib qolganlar. Samarqand viloyatiga oid toponimlar tarkibida qipchoq etnonimiga oid bo‘lgan joy nomlari ham ko‘plab uchraydi. Misol uchun Kattaqo‘rg‘on tumanidagi Qipchoq, Qipchoqrabot; Jonboy tumanidagi Sariqipchoq; Chelak, Narpay, Pastdarg‘om tumanlaridagi Qoraqipchoq qishloqlari buning yorqin misolidir.

Qirg‘iz – bu nom qadimgi turkiy “qirk” (qirq) va “iz” (izchil) so‘zlaridan kelib chiqqan bo‘lishi mumkin. Qirg‘izlar qadimiy ko‘chmanchi turkiy qabilalardan biri hisoblanadi. Samarqand viloyatining Kattaqo‘rg‘on tumanidagi Qizg‘iz qishloq. Qirg‘izqishloq (Samarqand viloyati Ishtixon tumani), Kattaqirg‘iz va Kichikqirg‘iz qishloqlari qayd qilingan.

Salur: Abulg‘ozi Bahodirxon “Shajarayi turk”da quyidagicha keltiradi: “Tog‘xonning to‘rt o‘g‘li bor erdi. Avval Salur, ikkinchi Emar, uchunchi Olayo‘ntli, to‘rtinchi Urgir… Salurning ma’nosi qilichli temak bo‘lur”[3]. Bugungi kunda Buxoro viloyati Qorako‘l tumanida ushbu nomdagi qishloq mavjud. Solur (Salur) – qadimgi o‘g‘uz-turkman qabilasi. Salur etnotoponimi Ozarbayjon, O‘zbekiston, Tojikiston, Turkiya, Xitoyda ham uchraydi[4].

Tatar – etnonimning kelib chiqishiga oid turli xil talqinlar mavjud. Qadimgi turkiy va mo‘g‘ul xalqlari bilan bog‘liq. Tatarlar katta qabila birlashmalari va jangovar xalqlar sifatida tanilgan. O‘zbekiston hududida Tatar, Tatarlar, Tatarqishloq, Tatarmahalla, Tatarto‘pi kabi etnotoponimlar uchraydi.

Uyg‘ur: “Shajarayi turk” asarida uyg‘ur, o‘n uyg‘ur, to‘qqiz uyg‘ur etnonimlari keltirilgan. Uyg‘urlar qadimiy davrlardan beri mavjud bo‘lgan turkiy qabila bo‘lib, ular madaniy va savdo aloqalari bilan mashhur bo‘lgan. Hozirda Xorazm viloyati Qo‘shko‘pir tumanida Shu nomdagi mahalla qayd qilingan. Andijon viloyati Paxtaobod tumanida Uyg‘urobod qishlog‘i bor.

Tojik (Tojik, Tojikobod, Tojikqishloq, Tojiklar, Tojikmahalla, Tojikravot) –O‘rta Osiyoda yashovchi forsiy xalqlardan biri. Hozirda Samarqand viloyati Pastdarg‘om tumani, Farg‘ona viloyatining Qo‘shtepa, Toshloq tumanlarida tojik etnotoponimi mavjud; Tojikqishloq – Farg‘ona viloyatining Qo‘shtepa, Quva tumanlari; Jizzax viloyatining Baxmal tumani; Tojikkent – Buxoro viloyatining Qorako‘l tumani; Tojiklar – Samarqand viloyati Kattaqo‘rg‘on tumani. Tojikmahalla – Toshkent viloyatining Toshkent tumani. Ushbu qishloqlarda asosan tojiklar yashaydi. Boshqa xalqlar, jumladan, o‘zbeklar bilan tojiklar qo‘shni yashaydigan hududlarda shunday qishloqlar ko‘p uchraydi.

Turk – qadimgi turkiy xalqlarning umumiy nomi bo‘lib, “kuchli” yoki “qudratli” degan ma’noni anglatadi. Farg‘ona viloyati Quva va Uchko‘prik tumanlarida shu nomda qishloqlar qayd qilingan. O‘zbekistonning turli viloyatlarida Turkiston, Turklar, Turkravosh, Turkqishloq deb ataladigan qishloq bo‘lib ulardagi *turk* so‘zi toponimning asosini tashkil etadi.

Turkman – “turk” va “man” qo‘shimchasidan kelib chiqqan. Turkmanlar turkiy xalqlarning bir qismi bo‘lib, ko‘chmanchi turmush tarziga ega bo‘lgan. Hozirda Samarqand viloyati Kattaqo‘rg‘on tumani Mo‘minxo‘ja qishloq jamoasiga qarashli shu nomdagi qishloq mavjud. Turkman bolg‘ali (Bulung‘ur tumanidagi qishloq), Turkmanqishloq (Samarqand viloyatining Poyariq, Pastdarg‘om va Samarqand tumanlari) kabi etnotoponimlar turkmanlar yashayotgan hududlardir.

Kirayt – “Shajarayi turk”da: Kiraytning ma’nosi qoraburan temak bo‘lur. Bir kishining yetti o‘g‘li bor erdi. Yettisi ham qora. Onlarg‘a xalq qiroytlar derlar erdi. Shundan tuqganlarig‘a kiraytlar tedilar. Qadimiy el bo‘lur[5]. Kerayitlar o‘zbek xalqining shakllanishida ishtirok etgan yirik etnik guruhlardan biridir. Kerayit, kerey, kareit, kirey deb yuritiluvchi etnonim qozoq, qirg‘iz, oltoy, tuva, boshqird, no‘g‘ay, buryat, mo‘g‘ul

[1] Абулғозий Баходирхон. Шажараи турк. – Тошкент: Чўлпон, 1992. – Б. 29.

[2] Баскаков Н.А. К вопросу о приосхождении этнонима кыргыз // Советская этнография. – 1964. – №2. – С. 23.

[3] Абулғозий Баходирхон. Шажараи турк. – Тошкент: Чўлпон, 1992. – Б. 36.

[4] Мухамедова З.Б.. Исследования по истории туркменского языка XI–XV вв. – Ашхабад, 1973. – С.23.

[5] Абулғозий. Шажараи турк. – Тошкент: Чўлпон, 1992. – Б. 36.

xalqlari tarkibida uchraydi. Hozirda Samarqand viloyatining Kattaqo‘rg‘on tumanidagi qishloq nomi.

Mang‘it – O‘rta Osiyoda mashhur bo‘lgan urug‘lardan biri. Mang‘it so‘zi manbalarda “mang‘it”, “mankit”, “manqut” ko‘rinishida uchraydi. Uning kelib chiqishi haqidagi tadqiqotlarga ko‘ra, mo‘g‘ulcha *myanga + at*, ya’ni *“minglar”* ma’nosini beradi. Bugungi kunda yurtimiz hududida *Mang‘it* etnotoponimi ko‘p uchraydi. Masalan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Amudaryo tumani, Andijon viloyatining Xo‘jaobod tumani, Qashqadaryo viloyatining Qamashi tumani, Buxoro viloyatining Jondor tumanida ushbu etnotoponimni uchratamiz. Bundan tashqari mang‘it etnotoponimi turli shakllarda ham qayd qilingan. Masalan, Mang‘itlar (Xorazm viloyatining Gurlan va Hazorasp tumanlarida), Mang‘itobod (Samarqand viloyatining Urgut tumanida), Mang‘itsolma (Xorazm viloyatining Gurlan tumanida), Mang‘iton (Buxoro viloyatining Buxoro, Vobkent, G‘ijduvon, Peshku tumanlarida) kabi joy nomlari mavjud.

Nukuz (nekuz, nekus, nukuz, nukus, no‘kis, nukis) – Nukuz qabilasi qadimgi turkiy urug‘lardan biri bo‘lib, uning etimologiyasi borasida bir qancha qarashlar mavjud. Xorazm tiligagi *nuz, nuv – yangi, kas – qo‘rg‘on,* ya’ni *“yangi qo‘rg‘on”* ma’nosini ifodalagan. Rivoyatga ko‘ra, Nukus (nukis) – surgun qilingan to‘qqizta qizning o‘g‘illaridan tarqalgan kishilarning avlodi bo‘lib, “To‘qqiz kishi” demakdir (tojikcha no‘h – to‘qqiz, kas – kishi). Jumladan, Q. Abdumuratov fikricha, nukuz so‘zi eron tilidan olingan bo‘lib, *nux – to‘qqiz, kas – kishi,* bunga Qoraqalpoqning 9 bahodiri haqidagi afsona asos bo‘lgan[1]. Yana bir tadqiqotga ko‘ra, *nu – to‘qqiz, kesh – uy, qo‘rg‘on* ma’nosini beradi[2]. Bugungi kunda O‘zbekistonda mazkur etnonim bilan nomlangan obyektlar ko‘p: Nukusqishloq, Balandnukus, Tayzannukus, Tavannukus, Nukuzko‘l (ko‘l), Nukusyap (kanal) va boshqalar. Ushbu etnotoponim Qoraqalpog‘iston Respublikasidan tashqari Xorazm viloyati Gurlan tumani, Qashqadaryo viloyati Qarshi tumani (Nekuz).

Sariq – ushbu etnonim ko‘plab urug‘lar tarkibida keladi. Bundan tashqari urug‘ nomiga *sari* tarzida ham qo‘shilib keladi. Masalan, sari-uyshun, sari-uyg‘ur, sari-nayman, sari-qangli, sari-qirg‘iz va hokazo. Shu nomdagi etnotoponim Qashqadaryo viloyati Koson tumanida uchraydi. Sari tarzida qo‘shilib kelgan qo‘shma etnotoponimlar ko‘plab uchraydi. Masalan, *Saribosh* (Navoiy viloyati Qiziltepa tumanidagi qishloq), *Sarijo‘ga* (Farg‘ona viloyati Qo‘shtepa tumanidagi qishloq), *Sariko‘l* (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Taxtako‘pir tumanidagi aholi punkti), *Sariqaloq* (Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumanidagi qishloq), *Sariqamish* (Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumanidagi qishloq), *Sariqishloq* (Navoiy viloyati Nurota tumanidagi qishloq), *Sariq* (Surxondaryo viloyati Qiziriq tumanidagi shaharcha) va hokazo.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, etnotoponimlar hududning siyosiy va madaniy tarixi haqida muhim ma’lumot beradi. Ularni o‘rganish orqali turli xalqlarning yashash joylari, ular qoldirgan madaniy meros va o‘zaro munosabatlarini aniqlash mumkin. Bu bog‘liqlikni chuqurroq tahlil qilish nafaqat tarixni, balki milliy va hududiy o‘zlikni yanada yaxshiroq anglashga yordam beradi. Shunday qilib, etnonim va etnotoponimlar bir-birini to‘ldiruvchi tushunchalar bo‘lib, ular orqali xalqning boy tarixi va madaniyati haqida to‘liq tasavvur hosil qilish mumkin. Bu mavzuning o‘rganilishi o‘zligimizni anglash va madaniy merosimizni asrab-avaylash uchun katta ahamiyatga ega.

Rezyume. Ushbu maqolada Abulg‘ozi Bahodirxonning “Shajarayi turk” asarida keltirilgan turkiy xalqlarning tarixi, ularning kelib chiqishi, shuningdek, etnotoponimlarning etimologik, semantik va arial tahlili yoritilgan. Maqolada asarda uchraydigan turli etnonimlar va ular asosida shakllangan etnotoponimlar, jumladan, qabila va urug‘ nomlari, hududlarning geografik joylashuvi hamda xalqning tarixi haqida batafsil ma’lumotlar taqdim etilgan.

Resume. This article discusses the history of Turkic peoples, their origins, as well as the etymological, semantic, and aerial analysis of ethnonyms in Abulghazi Bahadur Khan’s work “Shajarayi Turk”. The article provides detailed information on various ethnonyms found in the work and the ethnotoponyms derived from them, including names of tribes and clans, the geographical locations of regions, and the history of the people.

Резюме. В данной статье рассматриваются история тюркских народов, их происхождение, а также этимологический, семантический и ареальный анализ этнотопонимов, представленных в труде Абулгози Бахадурхана «Шаджарайи турк». В статье представлена подробная информация о различных этнонимах, встречающихся в произведении, и этнотопонимах, образованных на их основе, включая названия племён и родов, географическое расположение территорий и историю народов.

[1] К. Абдимуратов. О происхождения названия Нукус // Вестник Каракалпакского. филиала АН УзССР. – Нукус. – 1965. – № 1. – Б. 93-94.

[2] 10. Мирзаев Э. Очерки топонимики. – М., 1974. – С. 208.